MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA TA'LIMI VA TARBIYASINING O'RNI

O'. R. Ibodov
Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti
Musiqa ijrochiligi va madaniyat
kafedrasi o'qituvchisi

Annotasiya: *Maktabgacha ta'lim muassasasidagi musiqa ta'limi va tarbiyasining vazifasi bolalarni Vatanga sadoqat, do'stlik, tinchliksevarlik, mehnatga muhabbat ruhida kamol toptirish ularning musiqaviy didi bilan estetik saviyasini oshirishdan iboratdir. Musiqa tarbiyasi bolalarga musiqa tinglash, qo'shiqlarni kuylash musiqa bilan harakatlarni bajarish, musiqa asboblarini chalish, musiqa va musiqa ijrochilari haqidagi kitoblarni o'qish, teatr konsert singari musiqaviy faoliyatning har xil turlarini o'rganishdan iboratdir. Musiqa tinglanganidan keyingi bolalardagi fikr almashuvlar juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, bu bilan bolalar o'rtasida bir-birlarini anglash ruhi va o'zaro ishonch vujudga keladi.*

Kalit so'zlar*: Musiqa tarbiyasi, musiqa tinglash, vatanga sadoqat, do'stlik, mehnatga muhabbat, estetik, musiqiy did, vazifa.*

Musiqa rahbarining bolalar diqqatini qo'shiq mazmuniga jalb qila olishi, bolalarda o'zlari ijro etadigan musiqa asarlarini emotsional ma'nosini anglashga intilishini vujudga keltirish, ularning olam haqidagi tushunchalarining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bola musiqaga qarab harakat qilar ekan, unda beixtiyor emotsional moyillik va ritmni his etish shakllanadi. Hozirgi kunda bolalarni estetik ruhda tarbiyalash uchun kerakli hamma shart sharoitlar mavjuddir. "Yoshlar markazlari", "Bolalar va o'smirlar ijodiyoti markazi", mo'zey, teatrlar, kutubxona va madaniyat uylari bolalarning sevimli maskaniga aylangan.

Rahbar avvalo, bolalarni musiqa olamiga olib kirarkan, bolalarda musiqaga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, musiqiy tilni tushuntirishga, dunyoqarashini shakllantirishga, musiqiy didini o'stirishga, go'zallikni his qilishga, musiqiy o'quvini rivojlantirishga harakat qiladi. Musiqa ta'limining o'ziga xos yo'naltirilgan ma'lum bir vazifalari ham mavjuddir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa rahbari musiqa mashg'uloti yordamida qo'yidagi vazifalarni amalga oshirishni maqsad qilib qo'yadi.

1.Bolalarga musiqaga ixlos uyg'otish, musiqiy qobiliyatini (ritm tuyg'usi, musiqaviy diqqati, tasavvur va xotirasini, badiiy didini) o'stirish.

2. Bolalarda milliy merosimizga e'tibor, ona-Vatanga muhabbat hissini tarbiyalash, jamiyatga foyda keltirishga ishtiyoq, farzandlik, Bolalik va jamoatchilik oldidagi burchini anglash, do'stlik, o'rtoqlik, insonparvarlik tuyg'ularini tarkib toptirish didsizlik, xunuklik, g'oyasizlik, tubanlik kabi salbiy hislarga nisbatan murosasiz bo'lishni tarbiyalash.

3. Bolalarning badiiy ijodkorlik qobiliyatini oʻstirish, ularning hayotga, oʻqishga, mehnatga va turli hatti-haraktlarga goʻzallik olib kirishi qobiliyatini rivojlantirish, oʻz-oʻziga va atrof muhitdagi barcha nasalarga goʻzallik kirita olishga oʻrgatish.

Musiqa mashgʻuloti maʼlumki, xorda kuylash, musiqa savodi, kuylash kabi asosiy musiqa faoliyatlarini oʻz ichiga oladi va bolalarni ular bilan tanishtirishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻyadi. Mashgʻulotning har bir turida doirachalar, shaqildoqlar, uchburchak kabi turli bolalar musiqa asbobidan chalib, kuy va qoʻshiqlarga mos raqs elementlarini bajarish, musiqa asboblarining chalinishi, qoʻl harakatlari bilan imitatsiya qilish, chapak kabi elementlardan keng foydalanish yanada qiziqarli va jozibali boʻlishini taʼminlaydi.

Musiqa mashgʻuloti avvalo bolalarni dunyoqarashini oʻzgartirib, madaniyatli, estetik jihatidan barkamol boʻlib oʻsishlarida munosib oʻrin tutadi. Musiqani idrok etishga, musiqa nazariyasi, musiqa adabiyoti va tarixini, milliy qadriyatlarimizni oʻrgatadi va sanʼat durdonalari bilan tanishtiradi, vokal-xor malakalarini rivojlantiradi, musiqiy qobiliyatini oʻstiradi, hamda unga boʻlgan ehtiyojlarni qondiradi.

Musiqa mashgʻulotlarida rahbar bolaga dastavval bor musiqani eshita bilishni oʻrgatadi, musiqa mazmunini, goʻzalligini tushunishiga, musiqaga boʻlgan qiziqishini va ixlosini oʻygʻotishga, musiqiy tushunchalarni, musiqa qirralarini, turlari va shakllarini, janrlarini ochib beradi va madaniy ozuqa beradi. Musiqa taʼlimiy jarayonlarni sifatli amalga oshirish uchun, avvalo rahbarning qanday malaka va qobiliyatga ega ekanligiga bogʻliqdir.

Rahbar oʻz kasbini mutaxassisi boʻlishi, musiqani quvonch, baxsh etadigan jonli sanʼat sifatida sevishi, unga ehtirosli munosabatda boʻlish hamda oʻzi sevmaydigan narsalarga bolalarda muhabbat oʻygʻota olmasligini, hech qachon unutmasligi lozim. Rahbar oʻz oʻrni va qadrini bilish kerak. Mashgʻulotda rahbar obyekt, bolalar esa subyekt boʻlishlari lozim. Rahbar barcha maʼnaviy kuchlarini safarbar etish, gʻoyatda bardoshli, bolalarni va oʻz ishini chinakam sevish kerak.

Kuylash faoliyati bolalarning musiqa oʻquv qobiliyatlarini hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Guruhda jamoa boʻlib kuylash jarayonida bola oʻz ovoz ijrosini boshqaradi, oʻrtoqlarining ijrolarini eshitib kuzatadi va ular bilan birga joʻrnavozlik qilishga intiladi. Tinglash va kuylash oʻquv dasturi taʼlim mazmuning asosini tashkil etadi. Bolalarda kuylash va tinglash faoliyatlarini oʻrganishi bilan birga cholgʻuchilik, musiqali harakatlar hamda ijodkorlik faoliyatlari ham har tomonlama rivojlantiriladi, bilim va malakalarni oʻzlashtirish va musiqiy tavsiflarni ushbu faoliyatlar vositasida egallash imkoniyatlari yaratiladi.

Musiqa ijodkorligi faoliyati bu faoliyat bolalarda musiqiy tafakkur, izlanish va ijodkorlik malakalarini oʻstira borish uchun katta ahamiyatga egadir. Bu faoliyat bola ijrosida doira chertib joʻrnavozlik qilish, kuy ohanggiga mos harakatlarni xususan, raqs harakatlarini topish, sheʼr parchasiga kuy bastalash kabi ijodkorlik amaliyotlari bilan bajariladi. Musiqali harakatlar, cholgʻuchilik va ijodkorlik faoliyatlarini amalga oshirishda oʻyin uslublaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu faoliyatlar zamiri koʻproq oʻyin xususiyatlari bilan bogʻliqdir. Yangi oʻquv dasturida tinglash va kuylash uchun asarlar talab

darajasida berilgan. Musiqiy asarlarni guruh imkoniyatlari va oʻquv yilining muhim sanalariga muvofiq tarzda tanlab oʻqitish imkoniyatlarini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Норова Ш. У. РОЛЬ ВНЕШКОЛЬНОГО МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2022. – Т. 2. – №. 21. – С. 10-15.

2. Норова Ш. У. Роль народной музыки в духовно-нравственном образовании студентов //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 855-859.

3. Akhtamovich K. I. THE CONTENT OF EDUCATION AIMED AT METHODOLOGICAL IMPROVEMENT OF THE STUDY OF TRADITIONAL MUSICAL HERITAGE //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – Т. 3. – №. 01. – С. 13-15.

4. Кушаев И. А. Педагогико-методические условия изучения традиционного музыкального наследия в образовании //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 893-898.

5. Mirshayev U. M., Mirshayeva D. A. Formation, History and Stages of Development of Bukhara Maqom Art //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 429-433.

6. Миршаев Улугбек Музаффарович. "МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ МУЗЫКАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ КОЛЬНИКОВ В СЕМЬЕ" Наука, техника и образование, no. 2-1 (77), 2021, pp. 77-80.

7. Tukhtasin Rajabov Ibodovich.PRACTICAL SITUATION OF TEACHING UZBEK MUSICAL FOLKLORE IN THE CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM.International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I6.77 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 06 2022. Str.708-716

8. Tukhtasin Ibodovich Rajabov.The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore.Volume-1 |Issue-1 Available online @https://procedia.online/index.php/philosophy//Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN 2795-546XVolume – 1 | Issue – 1 | August – 2022 Procedia

9. Ramazanova O. K., qizi Mustaqimova G. G. Formation and Development of National Musical Traditions //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 336-339.

10. Каримов О. И., Шарипова С. Ш. К. Место искусства музыки в формировании идеальной личности человека в дошкольном заведении //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 692-698.

11. Ходжаев Р. Р., Каримов О. И. Подготовка будущих учителья музыки. Тренировка на скрипке для рефлексации мышц //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 1419-1423.

12. NURULLAYEV F. СОДЕРЖАНИЕ ОБУЧЕНИЯ БУХАРСКИМ НАРОДНЫМ ПЕСНЯМ В МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.

13. NURULLAYEV F. Моделирования педагогических с музыкальным уклоном действие объектов через математический аппарат в педагогике //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 20. – №. 20.

14. Ramazanova O. K., Shukurov M. HISTORICAL DEVELOPMENT OF STATUS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 02. – С. 447-452.

15. Rajabov A. The development of music and instrumental performance in Central Asia //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.

16. Axtamov I. Maktab musiqa madaniyati darslarida maqom namunalarini o'rgatishni metodik takomillashtirish tajribalaridan //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 21. – №. 21.

17. Каюмов И. Ф. Санъатнинг турлари ва уларнинг тарбиявий аҳамияти //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 849-854.

18. Ibragim Fayzullaevich Kayumov. Xalq qo’shiqlari asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarning nutqiy malakasini o’stirish usullari. Scientific progress 2021/03Б.635-640.

19. Рузиев Д. Ю. Оркестр как средство музыкально-эстетического воспитания учащихся //Academy. – 2020. – №. 11 (62). – С. 50-53.

20. Рузиев Д. Ю. Проектирование процесса обучения музыкальным произведениям в ансамбле //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-1 (77). – С. 58-61.

21. Кушаев И. А., Ахтамов И. И. У. ПРОБЛЕМЫ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ МУЗЫКАЛЬНЫХ ЗАНЯТИЙ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА //Academy. – 2021. – №. 3 (66). – С. 54-57.

22. RAXMATOVA M. “SHASHMAQOM” NASR (ASHULA BO‘LIMINING IKKINCHI GURUH SHO‘BALARINI) O‘RGATISH YO‘LLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 19. – №. 19.

23. Raxmatova M. O. O ‘ZBEK XALQINING FOLKLOR SAN’ATI HAMDA FOLKLOR-ETNOGRAFIK JAMOALARNING MUSIQA SAN’ATI RIVOJIDA TUTGAN O’RNI //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 628-634.

24. Мадримов Б. Х. ҚАДИМГИ ДАВР ФОЛЬКЛОРИНИНГ ЁШЛАР ТАРБИЯСИДАГИ АҲАМИЯТИ //ZAMONAVIY TA’LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI. – 2022. – Т. 1. – С. 192-195.

25. Мадримов Б. Х. Ўқувчиларни Мусиқа Саводхонлигини Ошириш Имкониятлари //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 12-16.

26. Ибодов У. Р. Способы обучения музыкальной грамоте на уроках музыкальной культуры //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-1 (77). – С. 65-68.

27. Ибодов У. Р. МУЗЫКАЛЬНЫЕ ФОРМЫ НА ОСНОВЕ ИНДИВИДУАЛЬНОЙ МОДЕЛИ КОМПОЗИЦИИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 236-241.

28. Хасанов Х. Р., Яхяева Ш. Ш. МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ «ГРУППОВОГО ПЕНИЯ» В ПРЕПОДАВАНИИ «МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ» В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B2. – С. 165-168.

29. Хасанов Х. Р. НЕОПРЕДЕЛЕННЫЕ ФОРМЫ В МУЗЫКЕ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 751-756.

30. Камолов Ш. Х., Бомуродов Ш. Ш. Педагогический характер студенческой молодежи и психологический подход //Academy. – 2021. – №. 3 (66). – С. 60-62.

31. Камолов Ш. Х. Приёмы и методы преподавания музыки в общеобразовательной школе //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 602-607.

32. Yoshiyevna U. M. THE METHOD OF ORGANIZING" GROUP SINGING" IN TEACHING" MUSICAL CULTURE" IN SECONDARY SCHOOLS //Modern Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – Т. 4. – С. 271-274.

33. Умурова М. Ё. THE IMPORTANCE OF USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN SPECIAL EDUCATIONAL SCHOOLS //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 22-2. – С. 24-26.

34. Мухамедов Т. Д. ФАКТОРЫ НРАВСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ХОРОВОГО ИСКУССТВА //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-1 (77). – С. 81-83.

35. Мухамедов Т. Д. Способы и средства развития музыкальных способностей учащихся на уроках музыки //Проблемы науки. – 2021. – Т. 43.